

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.B.01.15 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

MAXKAMOV TROBJON XUSANBOYEVICH

**O‘ZBEKISTON INVAZIV FLORASI: ZAMONAVIY HOLATI, AYRIM
TURLARINING BIOEKOLOGIK HUSUSIYATLARI VA ULARGA
QARSHI KURASH USULLARI**

03.00.10 – Ekologiya

**BIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
Contents of dissertation abstract of doctor of sciences (DSc)

Махкамов Тробжон Хусанбойевич O‘zbekiston invaziv florasini: zamonaviy holati, ayrim turlarining bioekologik xususiyatlari va ularga qarshi kurash usullari	3
Махкамов Тробжон Хусанбойевич Инвазивная флора Узбекистана: современное состояние, биоэкологическая характеристика некоторых видов и меры борьбы с ними.....	29
Махкамов Тробжон Хусанбойевич Invasive flora of Uzbekistan: current status, bioecological characteristics of some species and measures to combat them	56
E‘lon qilingan nashrlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works.....	60

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.B.01.15 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

MAXKAMOV TROBJON XUSANBOYEVICH

**O‘ZBEKISTON INVAZIV FLORASI: ZAMONAVIY HOLATI, AYRIM
TURLARINING BIOEKOLOGIK HUSUSIYATLARI VA ULARGA
QARSHI KURASH USULLARI**

03.00.10 – Ekologiya

**BIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Biologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/B204 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nuu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Yuldashev Akramjon Sultanmuradovich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Alimjanova Xolisxon Alimjanovna
biologiya fanlari doktori, professor

Mavlonov Xudargan
biologiya fanlari doktori, professor

Ajiev Alisher Baxtibaevich
biologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.B.01.15 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil 09 noyabr soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 4-uy, O'zbekiston Milliy universitetining Ekologiya fakulteti binosi, 2-qavat, 203-xona. Tel.: +99871 246-67-72).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (125-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 4-uy, Tel.: (+99871) 246-67-72.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 29 oktyabr kuni tarqatildi.
(2024 yil 29 oktyabr 22-raqamli reyestr bayonnomasi).

Raximova To'ra Uzoqovna
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, biologiya fanlari
doktori, professor

Allaberdiev Rustamjon Xamrayevich
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, biologiya fanlari
nomzodi, dotsent

Jabbarov Zafar Abdukurimovich
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, biologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo bo'yicha invaziv o'simliklarning bosqini tufayli biologik xilma-xillikning kamayishi, tuproqning fizik-kimyoviy xususiyatlarining o'zgarishi, qishloq xo'jaligi tizimida ekologik xavfsizlik muammolarini kelib chiqishi, inson salomatligiga ta'sir qiluvchi atrof-muhitni ifloslanishiga olib keluvchi manbalarining hosil bo'lish jarayonlari kuchayib bormoqda. Natijada o'zga hudud turlarining tabiiy tarqalmagan ekotizimlarga bostirib kirishi hal qiluvchi va tobora ortib borayotgan global muammoga aylanmoqda. Biologik xilma-xillik va Xalqaro o'simliklarni himoya qilish to'g'risidagi konvensiyalar, shuningdek, Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi va FAO invaziv begona turlarni "butun dunyo bo'ylab biologik xilma-xillik, ekotizim funksiyalari, inson salomatligi va iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillaridan biri deb qaramoqda"¹. Shu bois, invaziv o'simliklarning zamonaviy floristik tarkibini aniqlash va ularning salbiy ta'sirlarini cheklashning ilmiy asoslangan uslublarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda eng xavfli invaziv turlarni aniqlash, asosiy donor va retsipient mintaqalarni belgilash, biologik bosqinlarning asosiy vektorlari o'rganilib, chora-tadbirlar majmuasi ishlab chiqilmoqda, hamda begona invaziv turlarning kirib kelishining oldini olish va ularning quruqlik va suv ekotizimlariga ta'sirini sezilarli darajada kamaytirish bo'yicha choralar ko'rilmoqda. Bu yo'nalishda "Global invaziv turlar ma'lumotlar bazasi (GISD)", "Global invaziv begona turlarning ma'lumotlar hamkorligi" va "Introdutsent va Invaziv turlarning global registri (GRIIS)" invaziv begona turlarning tarqalishi haqidagi ma'lumotlar bazalarini yuritishga, biologik xilma-xillikni saqlash milliy strategiyalari va harakat rejalarini ishlab chiqishga, bosqinchi turlarning maqsadli nazorati va monitoringini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlarga e'tibor bermoqda.

Respublikamizda invaziv o'simliklarning floristik ro'yhatini shakllantirish, ekologik makoni va tarqalish areallarini aniqlash bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan va muayyan natijalar qo'lga kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4861sonli "O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida "Mamlakatimizda o'simliklar karantini tizimini yangi bosqichga ko'tarish, sohaga ilm-fan yangiliklari, xalqaro amaliyot va raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, karantindagi va boshqa xavfli zararli organizmlar o'choqlarini yo'q qilish va ulardan holi bo'lgan hududlarni belgilash, ular tarqalishining oldini olish hamda ularga qarshi kurashish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish"² hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21-fevraldagi 83-sonli "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha

¹ Introdutsent va invaziv turlarning global registri (GRIIS) <https://griis.org>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4861sonli "O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”³ qarori 15-maqсад “Quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga ko‘maklashish, o‘rmonlardan oqilona foydalanish, cho‘llanishga qarshi kurashish, yerlarning yemirilishini to‘xtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xillikning yo‘qolib ketish jarayonini to‘xtatish” 15.8-vazifasida “Begona invaziv turlar kirib kelishining oldini olish va ularning yer usti va suv ekotizimlariga ta‘sirini jiddiy qisqartirish bo‘yicha choralar ko‘rish, shuningdek, ustuvor turlar miqdorining qisqarishi yoki yo‘q qilinishining oldini olish bo‘yicha choralar ko‘rish.” kabi ustuvor vazifalar beliglangan bo‘lib, ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, invaziv o‘simliklarni inson salomatligiga, biologik xilma-xillikga, atrof-muhitga, qishloq xo‘jaligiga va iqtisodiyotning boshqa sohaslariga salbiy ta‘sirini oldini olish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 iyundagi 484-sonli “2019–2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”⁴ qarori, 2022 yil 19 dekabrda Kunming-Monreal global bioxilma-xillik asosi (GBF) bo‘yicha kelishuvi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 31-maydagi PF-81-son “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustivor yo‘nalishlarga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi⁵.

Invaziv o‘simlik turlarining floristik ro‘yhatlarini nashr etish, introduksiya-tabiiylashish-invaziya kontiniumi bo‘yicha maqomini aniqlash, tarqalish areallari va ekologik makonlarini aniqlash, agressiv turlarning bioekologik xususiyatlarini tadqiq etish, kirib kelish yo‘li va vaqtini aniqlash, ularni monitoringini olib borish, boshqarish va nazorat qilishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari hamda universitetlarida, jumladan, Czech Academy of Sciences (Chexiya), University of Sassari (Italiya), Aarhus University (Daniya), University of Wisconsin-Madison (AQSh), University of Tübingen (Germaniya), University of Helsinki (Finlandiya), Moskovskiy gosudarstvenniy universitet imeni Lomonosova (Rossiya), Forest Biodiversity and Ecology Division, National Remote Sensing Centre (Hindiston), O‘RFA Botanika instituti, O‘zbekiston Milliy universiteti va Toshkent davlat agrar universitetlarida (O‘zbekiston) olib borilmoqda.

³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022 yildagi 83-sonli “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 iyundagi 484-sonli “2019–2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori

⁵ <https://www.researchgate.net>, <https://scholar.google.com>

Eng xavfli invaziv turlarni aniqlash, asosiy donor va retsipient mintaqalarni belgilash, biologik bosqinlarning asosiy vektorlari o'rganilib, chora-tadbirlar majmuasi ishlab chiqish, hamda begona invaziv turlarning kirib kelishining oldini olish va ularning quruqlik va suv ekotizimlariga ta'sirini sezilarli darajada kamaytirishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi natijalar olingan: invaziv va karantin turlarni kuzatish, monitoring qilish va mahalliy ekosistemalarga ta'sirini tahlil qilish bo'yicha tadqiqotlar olib boruvchi "Invasive Species Working Group" tuzilgan (AQSh); invaziv turlar, tabiiy resurslar va qishloq xo'jaligini boshqarish bilan shug'ullanadigan keng qamrovli mobil ilovalarni ishlab chiqilgan (Center for Invasive Species and Ecosystem Health, University of Georgia); ko'pgina mintaqalar va davlatlar uchun invaziv turlarning kataloglari nashr etilgan (Czech Academy of Sciences, GBIF); invaziv turlarning kirib kelishining oldini olish va ularning quruqlik va suv ekotizimlariga ta'sirini sezilarli darajada kamaytirish chora tadbirlari ishlab chiqilgan (University of Sassari, Italiya).

Dunyoda biologik invaziyaning ekotizimlar va atrof-muhitning buzilishiga, inson salomatligiga, qishloq xo'jaligiga, iqtisodiyotning turli tarmoqlariga ta'sirini aniqlash, invaziv turlarning o'sish sur'ati, ko'payish tezligi/qobiliyati, yangi muhitga moslashishi bo'yicha bir qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: xavfli bosqinchi o'simliklar haqida jamoatchilikni ogohlantirish va ekologik madaniyatini oshirish; dunyo mamlakatlarining invaziv o'simliklar bo'yicha o'zaro ma'lumot almashishi va hamkorliklarini rivojlantirish; dunyo bo'ylab invaziv o'simliklarning tarqalishini kuzatish va monitoring olib borish uchun ma'lumot bazalari yaratilmoqda; tarqalishini oldini olishning agronomik, mexanik, biologik va ximik usullari ishlab chiqilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasida invaziv o'simliklarning taksonomik xilma-xilligi to'g'risidagi ilmiy ma'lumotlar deyarli mavjud emas. O'zbekistonga kirib kelgan o'zga xudud florasiga mansub bir qator invaziv turlarning yangi topilmalari (Tojibayev va Esanov, 2021), Buxoro shahridagi invaziv turlar (Esanov, 2017), invaziv turlarning kirib kelish vaqti va tabiiylashish darajasi (Maxkamov, 2020, 2021) to'g'risidagina ma'lumotlar mavjud. Muammoning dolzarbligiga qaramay, O'zbekiston florasida invaziv turlar va ularning xususiyatlarini maqsadli va tizimli o'rganish shu kungacha olib borilmagan.

Tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universitetining №AL 2021090820 "Tabiiy landshaftlardagi invaziv va karantin o'simliklarning o'choqlarining raqamli xaritalarini yaratish" (2022-2024) loyihasi, Ekologiya kafedrasining «Global iqlim o'zgarishi sharoitida bioxilma-xillikni saqlash, tuproqlarning ekologik holatini baholash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish» va Toshkent davlat agrar universiteti "Ekologiya va botanika" kafedrasining №12-2 "O'zbekiston florasidagi dorivor, yovvoyi yem-xashak o'simliklaridan qishloq xo'jaligida samarali foydalanish istiqbollari o'rganish va qishloq xo'jaligida ekologik toza mahsulotlar yetishtirish yo'llari" bosh ilmiy mavzulari doirasida

bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston adventiv florasining taksonomik tarkibini, invazivlik maqomini aniqlash, ayrim agressiv invaziv o‘simliklarning muvaffaqiyatli tarqalish sabablarini ilmiy asoslash va qarshi kurash usullarini ishlab chiqish, tarqalish areallari va ekologik makonlarini aniqlash hamda web-sahifasini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

adventiv o‘simlik turlarining ro‘yhatini shakllantirish va taksonomik tahlil qilish;

adventiv o‘simliklarni introduksiya-tabiiylashish-invaziya kontiniumi bo‘yicha tasniflash;

adventiv o‘simliklarni hayotiy shakllari, tabiiy kelib chiqish hududlari va ekologik makonlari bo‘yicha tahlil qilish;

invaziv o‘simliklarni invazivlik maqomi bo‘yicha tahlil qilish;

ayrim agressiv invaziv o‘simliklarning muvaffaqiyatli tarqalish sabablarini ilmiy asoslash;

invaziv o‘simliklarning terminologiyasini yaratish;

ayrim agressiv invaziv o‘simliklarning tarqalish areallari va ekologik makonlarini aniqlash;

ayrim agressiv invaziv o‘simliklarga qarshi kurash usullarini ishlab chiqish;

invaziv o‘simliklarning veb-sahifasini yaratish.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida O‘zbekiston adventiv va invaziv florasini olingan.

Tadqiqotning predmetini adventiv va invaziv o‘simliklarning taksonomiyasi, sistematikasi, biologiyasi, ekologiyasi, arealogiyasi, terminologiyasi tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dala va laboratoriya tadqiqotlari umumiy qabul qilingan uslublar bo‘yicha amalga oshirilgan, jumladan, takson nomlari POWO bo‘yicha muvofiqlashtirilgan, har bir taksonning ekologik makoni M. Hejda va boshqalar tasnifi asosida, invaziv o‘simliklarning introduksiya-tabiiylashish-invaziya kontiniumi bo‘yicha maqomi D. Richardson va P. Pyšek tasnifi asosida, invaziv turlarning barqarorlik darajasi A. Notov va V. Notov lar tomonidan taklif etilgan shkala bo‘yicha, uchrash holati Yu.I. Bulanyy shkalasi bo‘yicha, ekologik–fitotsenotik xususiyatlari Y.V. Pismarkina va T.B. Silaeva shkalasi asosida, gerbitsidlarni biologik samaradorligi W.S. Abbot formulasi yordamida aniqlangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor O‘zbekiston florasida 252 turdagi adventiv o‘simliklar mavjudligi aniqlangan. Adventiv turlarni introduksiya-tabiiylashish-invaziya kontiniumi bo‘yicha yashash holati hamda O‘zbekiston florasining 252 ta adventiv o‘simliklardan 31 ta (12,3%) tur tasodifan uchragan, 177 ta (70,2%) tur tabiiylashgan va 44 ta (17,5%) tur invaziv turlar ekanligi aniqlangan;

ilk bor O‘zbekiston florasini uchun yangi, avval qayd etilmagan *Tragopogon graminifolius* DC. (Asteraceae), *Ranunculus sardous* Grantz. (Ranunculaceae), *Anthriscus caucalis* M. Bieb. (Apiaceae), *Cynosurus echinatus* L. (Poaceae) kabi invaziv o‘simlik turlari aniqlangan;

O'zbekiston adventiv florasini hayotiy shakli bo'yicha tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichni bir yillik hayotiy shaklga ega turlar namoyon etib, boshqa hayotiy shakllardan 2 (ko'p yillik), 6 (ikki yillik), 18 (daraxt) va 36 (yarim buta, buta) barobar ko'p ekanligi ilmiy asoslangan;

O'zbekiston florasining adventiv turlarining tabiiy kelib chiqish hududlari bo'yicha tahlili natijasida kelib chiqish qit'asi va turlarning bostirib kirish holati o'rtasida bog'liqlik mavjudligi ($x^2 = 18,3$, $df = 5$, $P < 0,05$) hamda invaziv turlar asosan O'zbekiston florasiga tropik va mo'tadil Osiyo (201 ta), Evropa (154), Afrika (124), Shimoliy (43) va Janubiy (32) Amerika hududlaridan kirib kelganligi isbotlangan;

Adventiv turlarning ekologik makonlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki, turlarning aksariyati qishloq ho'jaligi (204 tur, ya'ni barcha qayd etilganlarning 81,3%) va ruderal (164 tur, ya'ni 65,1%) hududlar bilan bog'liq, qirg'oqlar yoki sohilbo'yi yashash joylari (68 tur, ya'ni 27,1%) va yaylovlar yoki o'tloqlar (41 tur, ya'ni 16,3%) ham yaxshi ifodalangan bo'lib, boshqa yashash joylarining mamlakatning invaziv florasiga qo'shgan hissi 10% dan oshmasligi isbotlangan;

O'zbekiston florasida invazivlik maqomiga ko'ra yuqori ko'rsatkich bilan baholangan, ya'ni 11-13 ball olgan o'simliklar 44 ta turni tashkil etishi aniqlangan;

Eng agressiv invaziv turlarning uchrash darajasi (UD), barqarorlik ko'rsatkichlari (BK) va ekologik-fitotsenotik xususiyatlari (EFX) bo'yicha invazivlik maqomi baxolangan. *Bidens frondosa* L. (UD=4, BK=6, EFX=2) 12 ball, *Xanthium orientale* L. (UD=4, BK=6, EFX=2) 12 ball, *Erigeron canadensis* L. (UD=4, BK=6, EFX=2) 12 ball, *Ailanthus altissima* (Mill.) Swingle (UD=4, BK=6, EFX=2) 12 ball, *Acer negundo* L. (UD=4, BK=6, EFX=3) 13 ball, *Berberis japonica* (Thunb.) Spreng (UD=4, BK=6, EFX=3) 13 ball, *Robinia pseudoacacia* L. (UD=4, BK=6, EFX=3) 13 ballni tashkil etib, tabiiy flora bostirib kirish xavfi yuqoriligi ochib berilgan;

Ayrim agressiv invaziv (*Bidens frondosa* L., *Xanthium orientale* L., *Ailanthus altissima* (Mill.) Swingle) o'simliklarning muvaffaqiyatli tarqalish sabablari ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Invaziv o'simliklar nomli veb-sayt HTML, CSS vs JAVASCRIPT tillaridan foydalanilgan holda yaratilgan va invaziv o'simliklarni boshqarish va nazorat qilish imkoniyati kengaytirilgan;

O'simliklarning uchrash darajasi, barqarorlik ko'rsatkichlari va ekologik-fitotsenotik xususiyatlari bo'yicha baxolash orqali ularning invazivlik maqomi ochib berilgan. Natijada invaziv turlarning tarqalish areallari va ekologik makonlari bo'yicha to'liq ma'lumotlar jamlangan bo'lib, agressiv invaziv turlarni tarqalishini boshqarish, nazorat qilish va qarshi kurashish usullari ishlab chiqilgan;

Rhaponticum repens va *Cuscuta campestris* ni Namangan viloyatida tarqalishi kuzatilib, *Rhaponticum repens* jami 9,4 ga maydonda, *Cuscuta campestris* karantin o'ti jami 15,1 ga maydonda tarqalgan o'choqlari aniqlangan. Buxoro viloyatida *Rhaponticum repens* begona o'ti 0,41 gektar maydonda, *Cuscuta campestris* karantin o'ti 0,67 gektar maydonda tarqalganligi isbotlangan;

Invaziv (*Bidens frondosa*, *Xanthium orientale*) va karantin (*Rhaponticum*

repens, *Cuscuta campestris*) o‘simliklarga qarshi kurashda Glifosat MSF 75% gran., Glifosat original 75,7% gran. va Glifosat 75% s.e.g preparatlarini 2,5-3,0 kg/ga sarf-me’yorlarida qo‘llashning biologik samaradorligi isbotlangan va qo‘llanilishi bo‘yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tajriba ma’lumotlari statistik tahlildan o‘tkazilganligi va natijalarning ishlab chiqarishga joriy etilganligi; tadqiqot natijalari respublika va xalqaro ilmiy–amaliy anjumanlar, innovatsion ko‘rgazmalarda muhokama qilinganligi; olingan natijalar asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi ro‘yhatiga kirgan ilmiy nashrlarda va Scopus, Web of Science xalqaro bazalari ro‘yhatiga kirgan jurnallarda maqolalar chop etilganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekiston florasida tarqalgan adventiv, invaziv yoki bosqinchi o‘simliklarning ro‘yhatini shakllantirilganligi, ilk bor O‘zbekiston florasida uchun yangi, avval qayd etilmagan *Tragopogon graminifolius* DC., *Ranunculus sardous* Grantz., *Anthriscus caucalis* M. Bieb., *Cynosurus echinatus* L. kabi invaziv o‘simlik turlari aniqlanganligi, mavjud invaziv o‘simliklarning eng agressivlarini (*Bidens frondosa* L., *Xanthium orientale* L., *Erigeron canadensis* L., *Tragopogon graminifolius* DC., *Ranunculus sardous* Grantz., *Ailanthus altissima* (Mill.) Swingle, *Acer negundo* L., *Berberis japonica* (Thunb.) Spreng., *Robinia pseudoacacia* L.) invazivlik maqomi aniqlanganligi, ayrim agressiv invaziv o‘simliklarning (*Bidens frondosa* L., *Xanthium orientale* L., *Ailanthus altissima* (Mill.) Swingle) muvaffaqiyatli tarqalish sabablarini ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston florasida tarqalgan invaziv va karantin o‘simliklarning invasiveplants.uz nomli veb-sayti yaratilgan bo‘lib, ushbu turlarning tarqalish o‘choqlarini tezkor aniqlash, ularni boshqarish va nazorat qilish usullari haqida qimmatli ma’lumotlar va resurslarni taqdim etadi, shu bilan birga invaziv va karantin o‘simliklarga qarshi samarali kurash usullari ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu o‘simliklarni tarqalish o‘choqlarini bartaraf etish, biologik xilma-xillikni kamayishini oldini olish, qishloq xo‘jaligi tizimida ekologik xavfsizlik muammolarini kelib chiqishi, inson salomatligiga ta’sir qiluvchi atrof-muhitni ifloslanishiga olib keluvchi manbaalarining hosil bo‘lish jarayonlarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.

O‘zbekiston invaziv florasida: zamonaviy holati, ayrim turlarining bioekologik hususiyatlari va ularga qarshi kurash usullari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Invaziv va karantin o‘simliklarga qarshi qo‘llanilgan Glifosat MSF 75,6%, s.e.g. gerbitsid bilan ishlov berish ishlanmasi Toshkent viloyati Quyi chirchiq tumanidagi yer maydonlarda joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 4-dekabrda 07/22-05/6205-son ma’lumotnomasi). Natijada preparat qo‘llanilgandan keyingi 45 kunda kakraga nisbatan 84,5%, ittikanak invaziv o‘simlikga nisbatan 91%, zarpechakka nisbatan 86,3% va

qo‘ytikan invaziv o‘simlikga nisbatan 89,3% biologik samaradorlik ko‘rsatgan. Glifosat original 75,6%, s.e.g. gerbitsidi kakraga nisbatan 70,3%, ittikanakga nisbatan 86,6%, zarpechakka nisbatan 84,6% va qo‘ytikanga nisbatan 87,6% biologik samaradorlik ko‘rsatgan va undan samarali foydalanish imkonini bergan;

Invaziv va karantin o‘simliklarga qarshi qo‘llanilgan Glifosat MSF 75,6%, s.e.g. gerbitsid bilan ishlov berish ishlanmasi Buxoro viloyati Romiton tumanidagi yer maydonlarda joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 4-dekabrda 07/22-05/6205-son ma‘lumotnomasi). Natijada preparat qo‘llanilgandan keyingi 45 kunda kakraga nisbatan 80,3%, ittikanak invaziv o‘simlikga nisbatan 92,6%, zarpechakka nisbatan 84,3% va qo‘ytikan invaziv o‘simlikga nisbatan 87,3% samaradorlik ko‘rsatgan. Glifosat original 75,6%, s.e.g. gerbitsidi kakraga nisbatan 72,6%, ittikanakga nisbatan 84,6%, zarpechakka nisbatan 82,6% va qo‘ytikanga nisbatan 88,6% biologik samaradorlikka erishish imkonini bergan;

Invaziv va karantin o‘simliklarga qarshi qo‘llanilgan Glifosat MSF 75% preparatini Surxondaryo viloyati Angor tumanida joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 4-dekabrda 07/22-05/6205-son ma‘lumotnomasi). Natijada yer maydonlarda gektariga 3,0 kg me‘yorida qo‘llash ishlanmasi tajribaning 60-kunida qo‘ytikan begona o‘tiga nisbatan 89,6%, ittikanak invaziv o‘simligiga nisbatan 91,2%, zarpechak begona o‘tiga nisbatan 94,2%, kakra begona o‘tiga qarshi 92,3% biologik samaradorlikka erishish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta, shu jumladan 3 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy–amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 27 ta ilmiy ishlar chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta maqola, jumladan, 13 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, sakkizta bob, xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat, dissertatsiyaning hajmi 184 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi, zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob‘ekti, tadqiqot uslublari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va aprobatsiyasi, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Adabiyotlar sharhi**” deb nomlangan birinchi bobi 8 ta bo‘limdan iborat bo‘lib, invaziya tushunchasi, invaziv o‘simliklarning ta‘siri,

allelopatik xususiyatlari, gulchang biologiyasi, urug' morfologiyasi, xo'jalikdagi ahamiyati, mikobiotasi, invaziv o'simliklarga bag'ishlangan floristik tadqiqotlar hamda karantin o'simliklar bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning tahlilini yoritib berishga bag'ishlangan.

Bobning **“Invaziya va invaziv o'simliklar tushunchasi”** deb nomlangan birinchi paragrafida o'zga flora mansub turlarni "tabiiylashgan" va "invaziv" deb belgilashda ehtiyotkorlik bilan yondashish, turni tabiiylashgan deb tasniflashning asosiy mezonini uning yovvoyi tabiatda ko'payishi va o'z-o'zini saqlab turuvchi populyatsiyalarni tashkil etishi va ushras darajasi ekanligi, shuning uchun uni qo'llash osonroq va ba'zi tadqiqotlar hatto bir xil turdagi tasodifiy va tabiiylashgan populyatsiyalarni farqlashi, biroq, invaziv turni hisobga olish mezonlari bir tomondan ekologlar va boshqa tomondan tabiatni muhofaza qiluvchilar, menejerlar va siyosatchilar o'rtasida ham farq qilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Bobning ikkinchi paragrafi **“Invaziv o'simliklarning ta'siri”** deb nomlangan bo'lib, invaziv o'simliklarning biologik xilma-xillikka, atrof muhitga va iqtisodiyotga hamda inson salomatligiga ta'siri bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahlili keltirilgan.

Bobning uchinchi paragrafi **“Invaziv o'simliklarning allelopatik xususiyatlari”** deb nomlangan bo'lib, ushbu bo'limda invaziv o'simliklarning yangi yashash joylariga muvaffaqiyatli tarqalishiga sabab ularning allelopatik xususiyati ekanligi yoritilgan adabiyotlar tahlili keltirilgan.

Bobning to'rtinchi paragrafi **“Invaziv o'simliklarning gulchang biologiyasi”** deb nomlangan bo'lib, invaziv o'simliklarning gulchang biologiyasidagi o'zgarishlar gullarni changlatuvchilar uchun yanada jozibador qilish uchun turli xil evolyutsion moslashuvlar bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi, gulchaglarning cho'kishi va urug' ishlab chiqarish ehtimolini yuqoriligi va natijada muvaffaqiyatli bosqinda hal qiluvchi rol o'ynashi, unumdor gulchaglarning yuqori foizi tarqalish muvaffaqiyati va muvaffaqiyatli bosqin mexanizmi bilan bog'liqligiga oid adabiyotlar tahlili keltirilgan.

Bobning beshinchi paragrafi **“Invaziv o'simliklarning urug morfologiyasi”** deb nomlangan bo'lib, unda invaziv turlarni mahalliy turlarga qaraganda tez urug'lanishi, urug'larning unib chiqishi va nihollarning saqlanib qolish ko'rsatkichlarining yuqori ekanligi tufayli ularning bosqinchilik salohiyatini oshirishi kabi ma'lumotlar adabiyotlar asosida keltirilgan.

Bobning oltinchi paragrafi **“Invaziv o'simliklar bo'yicha olib borilgan floristik tadqiqotlar”** deb nomlangan bo'lib, unda ko'pgina davlatlarda invaziv o'simliklarning to'liq floristik tarkibi aniqlanganligi va kataloglari nashr etilganligi (Avstriya (Essl & Rabitsch, 2002), Birlashgan Qirollik (Clement & Foster, 1994; Preston, 2004), Germaniya (Klotz, 2002), Irlandiya (Reynolds, 2002), Italiya (Celesti-Grappo, 2010), Pol'sha (Tokarska-Guzik, 2005), Chexiya (Pyšek, 2012) va boshqalar) to'g'risida ma'lumotlar adabiyotlar asosida keltirilgan.

Bobning yettinchi paragrafi **“Ayrim invaziv o'simliklarning xo'jalikdagi ahamiyati”** deb nomlangan bo'lib, ushbu bo'limda ayrim invaziv (*Physalis angulata* L., *Vaccaria hispanica* (Mill.) Rauschert, *Tragopogon graminifolius* DC.

Va *Solanum sisymbriifolium* Lam.) turlarning xo‘jalikdagi ahamiyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar adabiyotlar tahlili asosida keltirilgan.

Bobning sakkizinchi paragrafi “**Invaziv o‘simliklar mikobiotasi**” deb nomlangan bo‘lib, ushbu bo‘limda invaziv turlarda uchraydigan patogen zamburug‘lar to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Birinchi bobning to‘qqizinchi paragrafi “**Karantin o‘simliklar**” deb nomlangan bo‘lib, ushbu bo‘limda kakra, zarpechak va ambroziya turkum turlarining bioekologik xususiyatlari yoritilgan adabiyotlar tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot ob‘yekti va uslublari**” deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob‘yektlari va uslublari bayon etilgan. Tadqiqotning ob‘ekti invaziv va karantin o‘simliklar. O‘zbekiston forasi adventiv turlarining floristik tarkibini aniqlashda dala tadqiqotlari natijalaridan, olti jildidan iborat “Flora Uzbekistana” (1941-1962), XI jildlik “Opredelitel’ rasteniy Sredney Azii” (1968-2015) asaridan foydalanildi. Shu bilan birga barcha mavjud ilmiy adabiyotlar qamrab olindi. Bundan tashqari, elektron ma‘lumotlar bazasi IUCN ISSG ningGISD, , FAO ning IPPC, , CAB International (CABI), GRIIS, shuningdek, O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) va Samarqand Davlat universiteti (SAMDU) gerbariylarida saqlanayotgan gerbariy namunalariidagi invaziv turlar ham hisobga olindi. Takson nomlari va vakolatlari Rdagi rWCVP to‘plamidan foydalangan holda POWO (<https://powo.science.kew.org>) bo‘yicha standartlashtirildi (Brown et al. 2023). Har bir taksonning ekologik makoni SynHab loyihasi (www.synhab.com) doirasida ishlab chiqilgan, Hejda va boshq. (2015) va Pyšek va boshq. (2022) bo‘yicha batafsil tavsiflangan: o‘rmonlar, ochiq o‘rmonlar, butazorlar, o‘tloqlar, qumli, toshloq, quruq yerlar, sho‘rlangan, qirg‘oqbo‘yi, botqoq, suvli, ruderal va qishloq xo‘jaligi.

Adventiv o‘simlik turlarini introduksiya-tabiiylashish-invaziya kontinuumi bo‘ylab erishgan bosqichiga ko‘ra tasniflandi (Richardson et al., 2000; Richardson & Pyšek, 2006). 2019–2024 yillarda O‘zbekistonning turli hududlarida adventiv/invaziv turlarni qayd etishga qaratilgan dala tadqiqotlari o‘tkazildi.

Floristik tadqiqotlar bilan birga ekologik tadqiqotlar ham olib borildi. Turni barqarorlik darajasi Notov A. va Notov V. lar tomonidan taklif etilgan shkala (Notov & Notov, 2009), invaziv turlarning uchrash holati Yu.I. Bulanyy (2010) shkalasi, invaziv turlarning ekologik–fitotsenotik xususiyatlari Y.V. Pismarkina va T.B. Silaeva (2018) tomonidan taklif etilgan shkala yordamida baholandi. O‘zbekiston florasining invaziv turlarining ekologik makoni SynHab loyihasi (www.synhab.com) doirasida Hejda va boshq. (2015) va Pyšek va boshq. (2022) tomonidan ishlab chiqilgan tasnif bo‘yicha batafsil tavsiflandi.

Tadqiqotlar davomida mikologik va agrokimyoviy uslublardan ham foydalanildi. Zamburug‘ turlarini morfologik belgilarini aniqlash ishlarida mikologik uslubiy dasturlar, turli aniqlagich hamda ilmiy maqolalardan foydalanildi. Tadqiqotlar uchun olingan o‘simlik namunalariining yig‘ilgan vaqti, joyi belgilab qo‘yildi. Zamburug‘larning gerbariy namunalariini tekshirish ishlari N–MBI–15 rusumli Biolam va 300M (HDCE–X5) rusumli trinokulyar mikroskoplaridan foydalanildi. Zamburug‘larni tabiiy sharoitda rasmlarini olishda Canon IXUS 1260 raqamli fotoapparatidan foydalanildi. Aniqlangan

zamburug'larning zamonaviy sistematik nomenklaturasi indexfungorum.org va xo'jayin o'simlik nomlari powo.science.kew.org bazalari asosida berildi.

Invaziv va karantin o'simliklariga qarshi kurash choralarini o'rganish maqsadida O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti kichik tajriba maydonida o'simlik ko'chatlari ekildi va umum qabul qilingan usullar asosida parvarish qilindi. Gerbitsidlarni ta'sirini o'rganish maqsadida turli ta'sir etuvchi moddalar qo'llanilib sinaldi. Tajribalar 3 variantda 3 qaytarilishda olib borildi. Gerbitsidlarni biologik samaradorligi Abbot formulasi yordamida o'rganildi (Abbott, 1925).

Dissertatsiyaning "**O'zbekiston adventiv florasining keng qamrovli tahlili**" deb nomlangan uchinchi bobi oltita bo'limdan iborat bo'lib, bobning birinchi paragrafi "**O'zbekiston adventiv florasining taksonomik tahlili**" ga bag'ishlangan.


Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida O'zbekiston florasida 252 ta o'zga xudud florasida vakillari, ya'ni adventiv turlar uchrashi aniqlandi. Adventiv florada eng ko'p turlar bilan Asteraceae oilasi yetakchilik qilib, turlar soni 53 tani tashkil etdi (1-jadval, 1-rasm).

1-jadval

Adventiv floraning yetakchi oilalarining turlar soni bo'yicha miqdor ko'rsatgichlari

№	Oilaning nomi	Tur soni	Umumiy adventiv flora nisbatan %
1.	Asteraceae	53	21,1
2.	Brassicaceae Burnett	21	8,37
3.	Poaceae Barnhart	19	7,57
4.	Solanaceae	15	5,98
5.	Fabaceae Lindl.	13	5,16
6.	Amaranthaceae Juss.	12	4,78
7.	Apiaceae Lindl.	10	3,98
8.	Malvaceae Juss.	9	3,58
9.	Cyperaceae Juss.	7	2,79
10.	Boraginaceae Juss.	6	2,39
10.	Lamiaceae Martinov	6	2,39
jami		171	68,08

O'zbekistonning mahalliy bo'lmagan florasida 221 ta tabiiylashgan (177) va invaziv (44) turlar bilan ekologik sharoitlari o'xshash bo'lgan qo'shni mamlakatlarda qayd etilgan turlar sonidan sezilarli darajada ko'p. Qo'shni davlatlarning adventiv florasida tarkibi va holati bo'yicha ba'zi ma'lumotlar mavjud, masalan, Sennikov va Lazkov (2024) tomonidan nash etilgan maqolada Qirg'iziston florasida uchun 151 tur mahalliy bo'lmagan tur sifatida keltiradi va 40% (58 ta) tur tabiiylashgan yashash holatida ekanligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Afg'oniston florasida uchun 47 tur tabiiylashgan.



1-rasm. Adventiv flora yetakchi oilalarining yashash holati bo'yicha tahlili

Qozog'iston va Turkmaniston uchun ma'lumotlar faqat bir nechta ma'muriy birliklar bo'yicha mavjud, Tojikiston va Afg'oniston uchun esa ular yetishmayapti (Pyšek et al. 2017). Ushbu mavjud ma'lumotlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, tabiiylashgan turlar sonining boshqa qo'shni mamlakatlarnikidan ancha ko'pligi O'zbekiston bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlarning ancha ishonchli ekanligini ko'rsatadi.

Adventiv floraning yetakchi oilalarini O'zbekistonning umumiy florasini aks ettirgan huddi shu oilalar bilan solishtirildi (2-jadval).

2-jadval


Adventiv floraning yetakchi oilalarini umumiy turlar soni bilan qiyosiy tahlili

№	Oilaning nomi	Tur soni		Adventiv floraning ulushi, %
		adventiv	umumiy	
1.	Asteraceae	53	650	8,15
2.	Brassicaceae Burnett	21	233	9,0
3.	Poaceae Barnhart	19	292	6,5
4.	Solanaceae	15	20	75,0
5.	Fabaceae Lindl.	13	511	2,54
6.	Amaranthaceae Juss.	12	196	6,1
7.	Apiaceae Lindl.	10	211	4,74
8.	Malvaceae Juss.	9	20	45,0
9.	Cyperaceae Juss.	7	89	7,86
10.	Boraginaceae Juss.	6	119	5,0
11.	Lamiaceae Martinov	6	241	2,45

III-bobning ikkinchi paragrafi “**O‘zbekiston florasida adventiv turlarining introduksiya-tabiylashish-invaziya kontinuumi bo‘yicha tahlili**” deb nomlangan. Ushbu bo‘limda adventiv o‘simlik turlarini introduksiya-tabiylashish-invaziya kontinuumi bo‘ylab erishgan bosqichiga ko‘ra tasniflandi (Richardson et al., 2000; Richardson & Pyšek, 2006).

O‘zbekiston florasining 252 ta adventiv o‘simliklardan 31 ta (12,3%) tur tasodifan uchragan, 177 ta (70,2%) tur tabiiylashgan va 44 ta (17,5%) tur invaziv mahalliy bo‘lmagan turlar ekanligi tadqiqotlar davomida aniqlandi (2-rasm).


O‘zbekiston florasidagi 4385 turdagi o‘simliklarning umumiy xilma-xilligi bilan bog‘liq holda, adventiv – mahalliy bo‘lmagan taksonlarning hissasi 5,7%, shundan tabiiylashgan taksonlarning hissasi 4%, tasodifiy taksonlarning hissasi 0,7%, agressiv invaziv taksonlarning hissasi 1,0% ni tashkil qilishi aniqlandi.




2-rasm. Mahalliy bo‘lmagan turlarning invazivlik maqomi bo‘yicha taqsimoti

III-bobning uchinchi paragrafi “**O‘zbekiston florasining adventiv turlarining hayotiy shakllari bo‘yicha tahlili**” deb nomlangan. Hayotiy shakli bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatgichni bir yillik turlar namoyon etib, boshqa hayotiy shakllardan, ya‘ni ko‘p yilliklardan 2, ikki yilliklardan 6, daraxtlardan 18 va yarim buta, butalardan 36 va 28 barobar ko‘p ekanligi ma‘lum bo‘ldi (3-rasm).

III-bobning to‘rtinchi paragrafi “**O‘zbekiston florasining adventiv turlarining tabiiy kelib chiqish hududlari bo‘yicha tahlili**” deb nomlangan. Ushbu bo‘limning tahlili POWO saytida keltirilgan ma‘lumotlar asosida shakllantirildi (POWO, 2024). Tahlil natijasida kelib chiqish qit‘asi va turlarning bostirib kirish holati o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi ($x^2 = 18,3$, $df = 5$, $P < 0,05$). Natijada, adventiv turlar asosan O‘zbekiston florasiga tropik va mo‘tadil Osiyo (201 ta), Evropa (154), Afrika (124), Shimoliy (43) va Janubiy (32) Amerika hududlaridan kirib kelganligi aniqlandi (4-rasm).




3-rasm. Hayotiy shakllari bo'yicha tahlili



4-rasm. Adventiv turlarni tabiiy tarqalish qit'alari bo'yicha invazivlik maqomiga ko'ra tahlili

III-bobning beshinchi paragrafi **“O‘bekiston florasining adventiv turlarining ekologik makonlari bo‘yicha tahlili”** deb nomlangan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, turlarning aksariyati qishloq ho‘jaligi (204 tur, ya'ni barcha qayd etilganlarning 81,3%) va ruderal (164 tur, ya'ni 65,1%) hududlar bilan bog'liq (5-rasm). Qirg‘oqlar yoki sohilbo‘yi yashash joylari (68 tur, ya'ni 27,1%) va yaylovlar yoki o‘tloqlar (41 tur, ya'ni 16,3%) ham yaxshi ifodalangan bo‘lib, boshqa yashash joylarining mamlakatning adventiv florasiga qo‘shgan hissasi 10% dan oshmaydi. Bunday yashash makonlarini toshloqlar (8,0%), butazorlar (7,5%), ochiq o‘rmonlar (6,8%), qumliklar (5,6%), o‘rmonlar (4,0%), sahrolar yoki namlik kuchli cheklangan hududlar (3,9%), botqoqlar (3,2%), sho‘rhoklar (2,4%) va suvliklar (1,2%) tashkil etdi. Demak mahalliy bo‘lmagan turlar o‘rmonlar, sahrolar yoki namlik kuchli cheklangan hududlar, botqoqlar, sho‘rhoklar va suvliklardan

tashkil topgan yashash makonlarida kam uchrashi qayd etildi. Yuqorida nomlari qayd etilgan barcha (14 ta) yashash makonlarida tabiiylashgan statusga ega turlar yuqori ko'rsatgichni namoyon etdi.



5-rasm. Adventiv turlarning yashash makonlari va invazivlik maqomi bo'yicha tahlili

III-bobning oltinchi paragrafi **“Invaziv o'simliklarning konspekti”** deb nomlangan. Ushbu konspekt invaziv o'simliklarning hayotiy shakli, tabiiy tarqalgan areali, invaziya hududlari, ekologik makoni, biologiyasi, himoya choralarini kabi ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“O'zbekiston florasida adventiv turlarining invazivlik maqomi bo'yicha tahlili”** deb nomlangan. Respublikamiz hududidagi adventiv o'simlik turlarini invazivlik maqomini aniqlash orqali turning qay darajada xavfli ekanligi aniqlanadi. O'simliklarning uchrash darajasi, barqarorlik ko'rsatkichlari va ekologik–fitotsenotik xususiyatlari bo'yicha baxolanib, uning invazivlik maqomi aniqlandi. Invazivlik maqomiga ko'ra o'simliklar past (3-5 ball), o'rtacha (6-10 ball) va yuqori (11-13 ball) ko'rsatkichlarni namoyon etishi mumkin.

O'zbekiston florasida invazivlik maqomiga ko'ra yuqori ko'rsatgich bilan baholangan, ya'ni 11-13 ball olgan o'simliklar 44 ta turni (*Acalypha australis* L., *Amaranthus albus* L., *Amaranthus retroflexus* L., *Anthriscus caucalis* M. Bieb., *Cynodon dactylon* (L.) Pers., *Echinochloa crus-galli* (L.) P.Beauv., *Erigeron sumatrensis* Retz., *Euphorbia davidii* Subils, *Oxalis corniculata* L., *Portulaca oleracea* L., *Sonchus arvensis* L., *Sorghum halepense* (L.) Pers., *Tribulus terrestris* L., *Acer negundo* L., *Berberis japonica* (Thunb.) Spreng., *Bidens frondosa* L., *Ranunculus arvensis* L., *Robinia pseudoacacia* L., *Silybum marianum* (L.) Gaertn. va boshq.) tashkil etdi.

Ushbu bobning birinchi paragrafida *Bidens frondosa* L. uchrash darajasi, barqarorlik ko'rsatkichlari va ekologik–fitotsenotik xususiyatlari bo'yicha

baxolanib, uning invazivlik maqomi aniqlandi, 12 ballni tashkil etdi va tabiiy floraga bostirib kirish darajasi yuqoriligini ko'rsatdi. Ikkinchi paragrafida *Xanthium orientale* L. uchrash darajasi (4 ball), barqarorlik ko'rsatkichlari (6) va ekologik–fitotsenotik xususiyatlari (2) bo'yicha baxolanib, uning invazivlik maqomi 12 ballni tashkil etdi va tabiiy floraga bostirib kirish darajasi yuqoriligi aniqlandi. Bobning uchinchi paragrafida *Ranunculus sardous* Grantz. uchrash darajasi (3 ball), barqarorlik ko'rsatkichlari (4) va ekologik–fitotsenotik xususiyatlari (2) bo'yicha baxolanib, uning invazivlik maqomi 9 ballni tashkil etdi va tabiiy floraga bostirib kirish xavfi yuqori emasligi aniqlandi. To'rtinchi paragrafida *Erigeron canadensis* L. uchrash darajasi (4 ball), barqarorlik ko'rsatkichlari (6) va ekologik–fitotsenotik xususiyatlari (2) bo'yicha baxolanib, uning invazivlik maqomi 12 ballni tashkil etdi va tabiiy floraga bostirib kirish darajasi yuqoriligi aniqlandi. Bobning beshinchi paragrafida *Ailanthus altissima* (Mill.) Swingle uchrash darajasi (4 ball), barqarorlik ko'rsatkichlari (6) va ekologik–fitotsenotik xususiyatlari (2) bo'yicha baxolanib, uning invazivlik maqomi 12 ballni tashkil etdi va tabiiy floraga bostirib kirish darajasi yuqoriligi aniqlandi. Oltinchi paragrafida *Acer negundo* L. uchrash darajasi (4 ball), barqarorlik ko'rsatkichlari (6) va ekologik–fitotsenotik xususiyatlari (3) bo'yicha baxolanib, uning invazivlik maqomi 13 ballni tashkil etdi va tabiiy floraga bostirib kirish darajasi yuqoriligi aniqlandi. Ushbu bobning yettinchi paragrafida *Berberis japonica* (Thunb.) Spreng. uchrash darajasi (4 ball), barqarorlik ko'rsatkichlari (6) va ekologik–fitotsenotik xususiyatlari (3) bo'yicha baxolanib, uning invazivlik maqomi 13 ballni tashkil etdi va tabiiy floraga bostirib kirish darajasi yuqoriligi aniqlandi. Sakkizinchi paragrafida *Robinia pseudoacacia* L. uchrash darajasi (4 ball), barqarorlik ko'rsatkichlari (6) va ekologik–fitotsenotik xususiyatlari (3) bo'yicha baxolanib, uning invazivlik maqomi 13 ballni tashkil etdi va tabiiy floraga bostirib kirish darajasi yuqoriligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning beshinchi bobi **“Ayrim agressiv invaziv o'simliklarning muvaffaqiyatli tarqalish sabablarini ilmiy asoslash”** deb nomlangan bo'lib, eng agressiv uchta invaziv turning muvaffaqiyatli tarqalish sabablari bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

Bobning birinchi paragrafida *Bidens frondosa* L. ning muvaffaqiyatli tarqalish sabablari yoritilgan. Invaziv o'simlik *B. frondosa* mahalliy dorivor o'simlik *Bidens tripartita* ga nisbatan qurg'oqchilikka chidamli bo'lib, uchbo'lakli ittikanakdan barglarining shakli va urug'ining tuzlishi bo'yicha yaqqol farq qiladi. Ittikanakning ikkala turining urug'lariga yaxshilab razm solinsa, serbarg ittikanak – *B. frondosa* ni urug'laridagi ilmoqlarni ikki xil xolatda joylashganini ko'rish mumkin: ikkita shoxlaridagi ilmoqchalari pastga qaragan bo'lsa, urug' chetlaridagi ilmoqchalari yuqoriga qaragan. Bu holat ushbu invaziv turni mahalliy uchbo'lakli ittikanak – *B. tripartita* ga nisbatan ikki barobar tez tarqalishiga yordam beradi. *B. frondosa* ning turli populyatsiyalardagi morfometrik va reproduktiv mahsuldorligi o'rganildi (3-jadval).

B. frondosa ning jamoada ishtirok etish ulushi turning biomassasi bilan to'g'ri proportsional bolib, turning ulushi ortgan sari biomassasi ham ortib borishi,

o'simlikning zichligi bilan teskari proportsional bolib, zichligi ortgan sari jamoadagi ulushi kamayib borishi aniqlandi.

3-jadval

Bidens frondosa ning ayrim populyatsion xususiyatlari

№	Tseno-populyatsiya hududlari	Zichligi, dona/m ²	Turning biomassasi, g/m ²	Assekatorlarning biomassasi, g/m ²	Turning jamoada ishtiroki ulushi, %
1	Toshkent	18,6±1,7	1644,3±58,7	506,6±30,7	75,4
2	Namangan	16,2±1,1	1142,4±61,3	525,3±38,2	68,6
3	Buxoro	35,1±1,9	1097,6±48,2	1777,6±58,9	38,7
4	Surxondaryo	14,4±1,2	1250,6±53,2	337,5±15,8	77,2
O'rtacha qiymati		21,075	1283,725	786,75	64,975

Turning jamoada ishtirok etish ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatgich Surxondaryo tsenopopulyatsiyasida namoyon bo'lgan bo'lsa, eng past ulushi Buxoro tsenopopulyatsiyasida aniqlandi.

Turli tsenopopulyatsiyalarda *Bidens frondosa* ning ba'zi morfometrik va reproduktiv parametrlari aniqlandi (4-jadval).

4-jadval

Bidens frondosa ning urug' mahsuldorligi

№	Tsenopopulyatsiya hududlari	Osimlikning boyi, sm	Shohlarining soni, dona	Osimlikning ogirligi, g	Savatchalar soni, dona	Savatchadagi uruglar soni, dona	Real urug' mahsuldorligi, dona
1	Toshkent	158,4±4,2	31,5±2,8	117,4±5,4	57,3±8,1	34,3±2,6	1965,4±35,6
2	Namangan	162,2±4,7	28,4±2,3	102,8±5,7	54,2±6,3	32,7±2,1	1772,6±23,2
3	Buxoro	138,6±5,3	18,5±2,6	80,8±4,6	34,3±5,2	38,2±3,4	1310,3±12,4
4	Surxondaryo	165,4±3,8	32,6±3,2	112,5±4,7	64,6±5,3	32,3±2,8	2086,6±33,8
O'rtacha qiymati		156,15	27,75	103,4	52,6	34,38	1783,73

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'simliklarning bo'yi ham turli populyatsiyalarda turli xil bo'lib, o'simlik bo'yining baland bo'lishi shoxlar sonining ko'p bo'lishi va o'simlikning og'irligi bilan o'rtacha ijobiy

korrelyatsiyani tashkil etgan bo'lsa, 1 m² dagi tuplar soni va savatchalardagi urug'lar soni bilan teskari korrelyatsiyani tashkil etdi.

Bobning ikkinchi paragrafida *Xanthium orientale* L. ning muvaffaqiyatli tarqalish sabablari yoritilgan. O'zbekiston florasida *Xanthium* L. turkumining 3 ta turi tarqalgan. Ammo hozirgi vaqtda *X. strumarium* ning tarqalish areallari kundan kunga qisqarib bormoqda. Bunga sabab sifatida, birinchidan o'simlikning urug'ini olib kiruvchi manbaani yo'qligi bo'lsa, ikkinchidan o'simlik tarqalgan segetal joylarda o'simlikga qarshi kurash choralarining muntazam olib borilishidir. *X. orientale* va *X. spinosum* asosan ruderal joylarni makon qilsada, *X. orientale* daryolarning qirg'oqlari, yo'l yoqalarida ko'proq tarqaladi. *X. spinosum* esa asosan nitrofil joylarni makon tutgan. Shu bilan birga ushbu ikki tur *X. strumarium* ga nisbatan qurg'oqchil sharoitlarga chidamlilik belgilarini namoyon etadi.

X. orientale *X. strumarium* dan mevasining xajmini kattaligi, mevasidagi ilmoqlarining zichligi va uzunligi bilan yaqqol farq qiladi (6-rasm).



Xanthium orientale

Xanthium strumarium

6-рasm. Qo'ytikon turlarining mevasining ko'rinishi

Xanthium orientale ning turli populyatsiyalardagi morfometrik va reproduktiv mahsuldorligi o'rganildi (5-jadval).

5-jadval

***Xanthium orientale* ning turli populyatsiyalardagi morfometrik va reproduktiv mahsuldorligi**

Tsenopulyatsiya hududi	Osimlikning boyi, sm	Poyaning diametri, mm	Barglarning soni, dona	To'pmevalar soni, dona	To'pmevalarda urug'lar soni, dona	Real urug' mahsuldorligi, dona
Toshkent	64,7±10,	9,5±1,6	33,4±6,4	47,6±3,2	1,7±0,3	80,9±8,2

	3					
Namangan	54,2±4,4	8,1±0,9	26,8±3,6	58,4±4,3	1,5±0,4	87,6±10,3
Buxoro	36,5±2,1	6,2±0,5	24,5±2,7	33,2±3,1	1,8±0,3	59,8±4,8
Surxondaryo	61,5±8,2	8,7±1,4	30,9±2,8	54,1±4,2	1,7±0,2	91,9±7,9
O'rtacha qiymati	54,23	8,13	28,9	48,33	1,67	80,05

